

YASHIL INVESTITSİYALARNING GLOBAL TENDENSIYALARI VA MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA AHAMIYATI

Sabirov Xasan Nusratovich³

Tolibjonov Xurshidbek Hayotjon o‘g‘li⁴

So‘nggi yillarda ekologik barqarorlik va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish global siyosiy va iqtisodiy kun tartibining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, yashil investitsiyalar (green investments) ushbu muammolarga yechim topish bilan birga iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashning innovatsion yo‘li sifatida qaralmoqda. Yashil investitsiyalar — bu ekologik toza texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindini qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish kabi sohalarga yo‘naltiriladigan sarmoyalardir.

Mamlakatimiz Prezidentining 2022-yildagi qaroriga asosan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta‘minlash bo‘yicha harakatlar rejasining 9-bandida “Tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko‘paytirish” qismida ““Yashil” davlat investitsiyalarini o‘sish tendensiyasiga chiqarish uchun o‘rta muddatli budjet loyihasi va davlat investitsiya rejasini muvofiqlashtirish” bo‘yicha to‘xtalib o‘tilgan⁵.

Global miqyosda yashil investitsiyalar hajmi so‘nggi yillarda keskin o‘sish namoyish etmoqda. 2024 yilda past karbonli energiya o‘tishiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 11 %ga o‘sib, rekord \$2,1 trillionni tashkil etdi⁶. Umuman olganda, butun energiya investitsiyalari birinchi marta \$3 trilliondan yuqori darajaga ko‘tarilib, ulardan \$2 trillionni toza energiya texnologiyalari va infratuzilmasiga yo‘naltirildi. Shuningdek, global yashil iqtisodiyotning bozor kapitallashuvi 2024 yil birinchi choragida \$7,2 trillionga yetib, 2022 yil pasayishidan so‘ng tez tiklanish bosqichiga kirgani qayd etildi⁷. Bu tendensiyalar yashil investitsiyalarni nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki milliy iqtisodiyotlarning barqaror o‘sishi, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va energiya xavfsizligini ta‘minlash nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. Global moliyaviy tashkilotlar (BloombergNEF, IEA, World Bank) va xalqaro ilmiy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston misolida yashil investitsiyalarning milliy darajadagi ahamiyati statistik ma’lumotlar asosida o‘rganildi.


³ Xalqaro Nordik universiteti Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrası mudiri, PhD

⁴ Xalqaro Nordik universiteti Magistratura fakulteti dekan o‘rinbosari

⁵ O‘zbekiston Respublikası Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdağı PQ-436-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6303230>


⁶ <https://about.bnef.com/blog/global-investment-in-the-energy-transition-exceeded-2-trillion-for-the-first-time-in-2024-according-to-bloombergnef-report>

⁷ <https://www.theguardian.com/environment/2025/mar/26/tackling-climate-crisis-will-increase-economic-growth-oecd-research-finds>



1-rasm. 2020-2024 yillar Yashil investitsiyalar ajratilgan investitsiyalar⁸

Jahon mamlakatlari iqtisodiyotidagi ahamiyati: 2023 yilda global yashil investitsiyalar hajmi 1.7 trillion AQSH dollarini tashkil etgan (BloombergNEF, 2023), eng katta sarmoyalar quyosh energiyasi (45%), shamol energiyasi (25%) va elektr transport (15%) sohalariga yo‘naltirilgan. CBAM kabi mexanizmlar yashil investitsiyalarning geografiyasini o‘zgartirmoqda — rivojlanayotgan davlatlarga e’tibor ortmoqda.



2-rasm. 2024 yillar Yashil investitsiyalar ajratilgan investitsiyalar mamlakatlar miqiyosida⁹

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ahamiyati: 2030-yilgacha O‘zbekistonda 15 GW qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilgan. Energiya samaradorligi past bo‘lgan sanoat tarmoqlarida yashil texnologiyalarni

⁸ Muallif ishlanmasi

⁹ Muallif ishlanmasi

joriy etish natijasida ishlab chiqarish xarajatlari 20–30% ga qisqarishi mumkin. Yashil iqtisodiyot sohasida yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha istiqbolli tarmoqlar: elektr transport, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qurilish.

Global miqyosda yashil investitsiyalar nafaqat ekologik xavfsizlik, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Yevropa Ittifoqining CBAM siyosati kabi tashqi regulyatorlar rivojlanayotgan davlatlarni yashil iqtisodiyot sari faol harakat qilishga majbur qilmoqda. O‘zbekiston bu borada salmoqli qadamlar tashlamoqda — xususan, Masdar, ACWA Power kabi kompaniyalar bilan hamkorlikda yirik quyosh va shamol stansiyalari qurilmoqda.

Biroq muammolar ham mavjud: texnologik tayyorgarlik darajasining pastligi, moliyaviy instrumentlarning cheklanganligi va mahalliy investorlarning yetarli darajada jalb etilmaganligi yashil investitsiyalarni kengaytirishda to‘siq bo‘lmoqda.

Yashil investitsiyalar hozirgi zamon global iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalishda keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ular to‘g‘ri strategik yondashuv bilan iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni bir vaqtning o‘zida ta‘minlay oladi.

Yashil investitsiyalar – bu ekologik muammolar yechimi bilan birga iqtisodiy rivojlanishning yangi yo‘nalishidir. Ular global va milliy iqtisodiyotlarda energetika xavfsizligi, samaradorlik, eksport salohiyatini oshirish kabi omillar orqali muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda bu jarayonni yanada jadallashtirish uchun institutsional islohotlar, huquqiy asoslar va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6303230>
2. BloombergNEF (2023). Clean Energy Investment Trends
3. International Energy Agency (IEA). Renewables 2023 Global Status Report
4. UNDP Uzbekistan. Climate Risk Profile for Uzbekistan
5. Jahon banki (2022). Green Finance and Climate Investment Report
6. <https://www.theguardian.com/environment/2025/mar/26/tackling-climate-crisis-will-increase-economic-growth-oecd-research-finds>
7. <https://about.bnef.com/blog/global-investment-in-the-energy-transition-exceeded-2-trillion-for-the-first-time-in-2024-according-to-bloombergnef-report>